



## SIFAT SOHASIDA SIYOSAT

## ISO 9001:2015

«UzXCMG» MCHJ QK ning O'zbekiston mashinasozlik bozorida qurilish va yo'l qurilish texnikalarini ishlab chiqarishdagi va jaxon mashinasozligiga faol integratsiyalashda ildamlilikni saqlab qolish strategik maqsadi va vazivasiga muvofiq:

**Bizning boyligimiz** istemolchilar, korxonalar xizmatchilari, maxsulot yetkazib beruvchilar, dilerlar, aksionerlar xisoblanadi.

**Sifat sohasida asosiy maqsadimiz** istemolchilarning talabi va istagini qondirishni ta'minlovchi va korxonaning moliyaviy axvolini mo'tadil saqlovchi servis xizmat ko'rsatish va raqobatbardosh maxsulot yaratish xisoblanadi.

**Maqsadga erishishda asosiy vosita** ISO 9001 talabiga mos jarayonli yondashuv va xavfga yo'naltirilgan tafakkur asosidagi sifat menejmenti tizimi xisoblanadi.

### **Maqsadga quyidagi vazifalarni xal qilish orqali erishiladi:**

- istemolchilarning joriy va perspektiv talab va istaklarini uzviy taxlil qilish va bizning maxsulotni ob'ektiv qoniyatlarini baxolash;
- doimiy mukammallashtirish va o'zaro foyda printsiplariga asoslangan maxsulot yetkazib beruvchilarni saralash va rivojlantirishning samarali tizimini yaratish;
- ishlab chiqariluvchi maxsulotning sifatini doimiy yaxshilash jarayoniga xar bir xizmatchini chorlashga yordam beruvchi qulay sharoitni yaratish, ishchilarni sifat sohasida tizimli ravishda malakasini oshirish;
- maxsulot sifatini, uni ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy usul, progressiv texnologiya va loyihalashtiruvchi texnik vositalarni kiritish xisobiga rejalashtirish;
- maxsulot sifatini, ishlab chiqarish jarayonida sifatni ta'minlovchi mexanizmlarni joylashtirish orqali boshqarish;
- maxsulot yaratish jarayonini qo'yilgan talablar asosida boshqarish;
- maxsulotning muvofiqligini ta'minlash, davlat buyurtmasi bo'yicha tayyorlanishi, qonunchilik talabi va iste'molchining talabiga to'liq javob berishi;
- ishlab chiqariluvchi maxsulotning sifat ko'rsatkichlarini boshqarish va servis xizmat uchun jarayonlarni axborot bilan ta'minlash;
- ishlab chiqariluvchi maxsulotga texnik xodimlarning yuqori malakasiga asoslangan zamonaviy universal va maxsus uskunalari va jixozlarni qo'llagan xolda professional servis xizmat kursatish;
- keraksiz xavfga yo'naltirilgan tafakkurlarning ta'sirini oldini olishga qaratilgan, shuningdek iste'molchilarning kelgusidagi talab va istaklarini inobatga olgan xolda davlat buyurtmasi bo'yicha maxsulot sifatini yaxshilash maqsadida o'tkaziluvchi tadbirlarning natijasini ta'minlash.

### **Qo'yilgan vazifalarning bajarilishi uchun «UzXCMG» MCHJ QK ning yuqori rahbariyati majburdir:**

- Siyosatni korxonaning xodimlari tomonidan tushunilishini ta'minlash va ma'lumot berish;
- ISO 9001 standarti talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimining samaradorligini doimiy ravishda takomillashtirish.
- xavfga yo'naltirilgan tafakkur va jarayonli yondashuvni qo'llashda ko'mak berish;
- sifat menejmenti tizimining doimiy yaxshilanishi va natijaviy ishlashi uchun barcha imkoniyatlarni qo'llash;
- butun ishlab chiqarish siklida zarur resurslarni, xodimlarning majburiyat va vakolatlarini taksimlash.



## ENERGETIKA SIYOSATI

## ISO 50001:2018

“UzXCMG” MChJ QK zamonaviy korxonada bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi eng yirik murakkab qurilish texnikasi ishlab chiqaruvchi korxonada hisoblanadi.

Energiyani tejash va energiya samaradorligi siyosati korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni talablariga mos keladi.

Energiya sarfini kamaytirish, energetika resurslari yo‘qotilishini kamaytirish, maksimal foyda olish va ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini minimallashtirish orqali mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash energiyani tejash sohasida asos hisoblanadi.

### **“UzXCMG” MChJ QK rahbariyati energiya tejash sohasida quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:**

- ishlab chiqarishning energiya sarfini doimiy va rejali ravishda kamaytirish;
- ishlab chiqarish, uskunalarda, tizimlarda va jarayonlarda modernizatsiya qilishda energiya tejovchi texnologiyalar va uskunalarini joriy etish;
- “UzXCMG” MChJ QKning har bir xodimiga psixologiya, madaniyat va energiyani tejamkorlik bilan iste‘mol qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish;
- ISO 50001 standarti talablariga muvofiq energetika menejmenti tizimining samaradorligini doimiy ravishda takomillashtirish.

### **“UzXCMG” MChJ QKning belgilangan maqsadlarga erishishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- energiya resurslarining barcha turlaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish hajmi birligiga ularning sarfini kamaytirish ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish;
- O‘zbekiston Respublikasining energiya samaradorligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari talablariga, shuningdek uning energetika menejmenti tizimining ichki hujjatlari talablariga rioya etilishini ta‘minlash;
- Korxonaning energetika maqsadlari va vazifalariga erishish uchun axborot va zarur resurslar mavjudligini ta‘minlash;
- ishlab chiqarishni loyihalash va modernizatsiya qilishda, shuningdek, moddiy resurslar, yangi asbob-uskunalar, texnologik birliklar va agregatlarni xarid qilishda energiya samaradorligi masalalarini boshqarish;
- Energiyani tejash va energetika xususiyatlarini yaxshilash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Energetika resurslarini tejash, mahsulot tannarxini pasaytirish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga qaratilgan tadbirlarga barcha xodimlarni jalb qilish.

**Faqat bosh direktordan tortib har bir mutaxassis va ishchigacha hammaning umumiy sa'y harakatlari energiya tejash muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.**

**Yuqori rahbariyat ushbu tamoyillarga amal qilish majburiyatini oladi.**